

Ishonch telefonlari orqali 278 ta murojaat qabul qilindi

Murojaatlar bo‘limi xodimlari 17-21 iyul kunlari *Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya, neyroxirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyat markazlarida, Respublika ko‘z kasalliklari klinik shifoxonasida, Surxondaryo viloyati ko‘p tarmoqli tibbiyat markazida, Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyat markazi Sirdaryo filialida, Qashqadaryo viloyati viloyat ko‘p tarmoqli tibbiyat markazida, Respublika ixtisoslashtirilgan ko‘z mikroxirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyat markazi Qoraqalpog‘iston Respublikasi filialida, Buxoro viloyati viloyat ko‘p tarmoqli tibbiyat markazida, Toshkent tibbiyat akademiyasi Urganch filiali klinikasida, Toshkent viloyati ko‘p tarmoqli tibbiyat markazilarida* imtiyozli yo‘llanma bilan davolanib chiqqan **216 nafar** bemorlar bilan tibbiy yordamni baholash, tibbiy yordam sifati va hajmi yuzasidan telemuloqotlar o‘tkazdi.

Bo‘lim xodimlari tomonidan o‘tkazilgan telemuloqatlar natijasida imtiyozli yo‘llanma bilan davolanib chiqqan **9(4,2%) nafar** fuqarolar *oziq-ovqat sifatidan, shifokor va hamshiralarni muomalasidan hamda o‘z hisobidan dori vositalari sotib olganligi* yuzasidan e’tirozlarini bildirgan bo‘lsada e’tirozlar yuzasidan Jamg‘armaga yozma murojaat qilmasligini bildirdi.

Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi ishonch telefon(**99 353 93 54, 94 353 93 54**)lariga **62 ta** fuqarolardan murojaatlar kelib tushdi. Murojaatlarning asosiy qismi imtiyozli toifaga ega bo‘lgan fuqarolarga Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan yuborilgan “*sms*” xabarnoma hamda *jamg‘arma faoliyati yuzasidan* fuqarolarning *og‘zaki murojaatlari* bo‘ldi.

Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi *ishonch telefonlariga* hafta davomida imtiyozga ega fuqarolardan **8(13%)ta og‘zaki e’tirozli murojaatlar** bo‘ldi.

Shulardan:

Toshkent shahar Chilonzor tumanida yashovchi fuqaro poliklinikada elektron navbat tartib bilan ishlamayotganligi, Samarqand viloyati Qo‘sirobod tumanida va Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumanida yashovchi fuqarolar imtiyozli yo‘llanma navbati kelmayotganlini yuzasidan noroziligini bildirib Jamg‘arma manziliga e’tirozli og‘zaki murojaat qildi. Fuqarolar murojaatlari tegishliligi bo‘yicha Jamg‘arma mas’ul xodimlariga ma’lumotlari berildi, og‘zaki e’tirozli murojaatlar ijobjiy hal qilindi.

Qoraqalpag‘iston Respublikasi va Xorazm, Samarqand, Jizzax, Sirdaryo viloyatlarida yashovchi imtiyozga ega fuqarolardan Jamg‘arma ishonch telefoniga kelib tushgan og‘zaki murojaatlar xududiy bosh mutaxassislarga ma’lumotlari berildi, og‘zaki murojaat qilgan fuqarolarga tegishliligi yuzasidan qayerga murojaat qilish kerakligi bosh mutaxassislar tomonidan tushuntirildi.

Murojaatlar bilan ishslash bo‘limi xodimlari hafta davomida umumiyl **278** nafar fuqarolar bilan telemuloqot o‘tkazdi.

**Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi
Matbuot xizmati.**